

## Shoira Zulfiyaxonimga bag'ishlandi

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti xotin – qizlar Kengashi raisasi N. Xolikovaning tashabbusi bilan joriy yilning 22 fevral kuni fakultetning talaba – yoshlari ishtirokida shoira Zulfiyaxonimning tavallud kuni munosabati bilan ma'naviy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda "Zulfiya" mukofoti sovrindorlari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Magistratura bo'limi magistranti Xoljigitova Dilbarxon Bahodir qizi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti talabasi Masharipova Ruhsora Olimjonovnalarning mehmon sifatida tashrif buyurishdi va shoira Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqida davra suhbatini tashkil etishdi hamda shoiramizning she'rlarini yoddan o'qib mushoira o'tkazishdi.

Tadbir juda chiroyli va ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Yoshlarda she'riyatga bo'lgan ehtirolari yanada oshdi.



"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti Ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

I.Raximov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov